

JUMBOQLAR JOZIBASI (O'ZBEK VA TURK TOPISHMOQLARI MISOLIDA)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10250574>

Xojiyeva Oynisa Shabonovna

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

o'zbek tili va adabiyoti universiteti

2-kurs tayanch doktoranti

e-mail: niso-nur@mail.ru

tel.: +998977245373

Annotatsiya

Ushbu maqolada topishmoqlarning genezisi, janr xususiyatlari tahlilga tortilgan. O'zbek va turk folkloridagi topishmoqlarning turlari qiyoslanib, ularning umumiy va farqli jihatlari aniqlangan. Tahlillar har ikki xalq topishmoqlaridan misollar bilan dalillangan.

Kalit so'zlar

topishmoq, bilmece, folklor, turkiy xalqlar, mif, shajirtmaca.

Odamzot tabiatan hamisha jumboqlar, sir-asrorlarni bilishga, yashirin bilimlarning tagiga yetishga o'ch bo'lib kelgan. Zamirida biror sirni pinhon tutgan hamma narsa insonni o'ziga tortib, diqqatini jalb qilib kelgan. Toki shu sirning tagiga yetmaguncha, oromini yo'qotgan. Qiziqib, izlanib jumboqning yechimi topilganida his qilinadigan zavqni esa hech nima bilan tenglashtirib bo'lmaydi. Topishmoqlar dunyoga kelish sabablaridan biri ham balki, insoniyatning shu sirga bo'lgan intilishi oqibatidandir...

XXI asrda ham butun dunyoda o'z aktualligini yo'qotmagan folkorning bu mo'jaz janrining tarixi insoniyat tafakkuri tarixi qadar ko'hnadir. Folklorning aksariyat janrlari qatori topishmoqning ham yuzaga kelishida ajdodlarimizning turmush tarzi bilan bog'liq real hayotiy voqelik birlamchi asos bo'lgan bo'lsa-da, janr takomilida qadimgi mifologik tasavvurlar, so'z magiyasi va so'z tabusiga aloqador inonch-e'tiqodlar hamda marosimlar muhim rol o'ynagan. Topishmoqlarning genetik ildizlari qadimgi ritual marosimlar va magik qarashlar bilan aloqadorligi ko'pgina folklorshunoslar tomonidan e'tirof etilgan. Rus olimi M. Sokolov topishmoqni, hattoki, mifik tasavvurni ifodalovchi vosita deb ta'riflaydi: "topishmoqlar qadimda muayyan inonch-e'toqodlarni tashish vazifasini bajargan

bo'lib, jumboq aytish diniy qarashlarning sir-asrorlarini yoritish yoki mifik tasavvurlarni ifodalash vositasi bo'lgan".

Tatar folklorshunosi M. Bakirov ham topishmoq so'zining kelib chiqishini "tabu" atamasi bilan bog'laydi: "Само слово «загадка» – «табышмак» образовано от корня «табу» – найти, отгадать".

A. N. Pipin ham bugungi kunda oddiylashib, ko'ngilochar tus olgan topishmoqlarning qadim zamonlarda xalqlarning e'tiqodi bilan chambarchas bog'liq bo'lganligi, shuning uchun topishmoq aytish va uning yechimini topish mifologiyaning muhim bir qismi bo'lganligini ta'kidlaydi.

Turk xalq adabiyoti bilimdoni professor Şükrü Elçin o'zining "Türk bilmeceleri" kitobida topishmoqlarning katta-yu kichikning zehnda, bilim va ziyraklikda ustunligini sinash maqsadida aytilishi bilan birga, davlat odamlari orasida o'zaro yashirin xabar almashuv usuli bo'lganligini ham alohida qayd etib o'tadi.

Dastlab millatlarning ishonch-e'tiqodini, ularning dunyo haqidagi ilk tasavvurlarini, mifologik qarashlarini, kosmogonik tafakkurini ifodalab kelgan, so'ng esa o'zaro zukkolik sinovini, topqirlik va kuzatuvchanlik qobiliyatini hozirjavoblik bilan umumlashtirib shakllantirgan topishmoqlar turli davr va turfa xalqlarda xilma-xil atamalar bilan nomlanib kelgan. Nemischada ratsel, ingliz tilida riddle, ruschada zagadka, fransuz tilida enigma, arab tilida lug'z, fors-tojik tilli xalqlarda chiston deb atalgan bu janrni turkiy xalqlar ijodida bir qancha atamalar bilan uchratish mumkin. Topishmoqlar bilimdoni Zubayda Husainova o'zbeklarda topishmoqni atab keluvchi terminlarning "nihoyat darajada ko'p" ekanligini bejizga ta'kidlamaydi. Olima bu janrni ifodalovchi topishmoq, topishmashoq, topmacha, topar cho'pchak, top-top, top-top chop'chak, top-top matal, cho'pchak, jumboq (jummoq, jumoq), matal, masala, ushuk, chiston, lug'z kabi atamalarni sanab o'tadi.

Şükrü Elçin topishmoqlar G'arbiy turklarda "bilmoq" fe'lidan yasalgan "bilmece" atamasi bilan ifodalansa, Shimoliy va Sharqiy turklar hamda ozarbayjonlarda "topmoq" fe'lidan yasalgan "tabzug", "tabmaca" kabi kalimalar bilan ifodalanishini aytadi.

Shuningdek, boshqirdlarda yomaq (yomak, yommaq, yombaq), tatarlarda tabishmak, qirg'izlarda matal terminlari ishlatilsa, qozoq, qoraqalpoq, chuvashlarda har bir xalqning til xususiyatlaridan kelib chiqib, jumboq kalimasining turli shakllari qo'llaniladi.

O'zbek tilida topishmoq atamasi asosiy adabiy termin bo'lgani holda, bir qator boshqa nomlar ostida ham atab kelinganiga guvoh bo'ldik. Aynan shu holat turk folklorida ham kuzatiladi. Turk xalq adabiyotida bilmece asosiy termin bo'lsa-da, Anadoluning ba'zi qishloq va shaharchlarida masal, mesel, matal, hikaye, bulmaca, söz, dele, fıcık, gazelleme kabi nomlar ham qo'llaniladi.

Topishmoqlar dunyo xalqlarining barchasida birday ommalashgan janr bo'lib, ularda xalqning turmush tarzi, hayot tajribasi va qiziqishlari aks etadi. Topishmoqlarda biror predmet, shaxs, voqea-hodisa o'z nomi bilan atalmaydi, turli metaforik ta'riflar, nozik ishoralar, boshqa o'xshash narsa-hodisa yoki holatlar bilan tasvirlanib, javobini topishga undaladi. Har qanday topishmoqning zamirida javobtalab bir savol yotadi. Shuning uchun topishmoqlarni asosiy ikki qismga – jumboq (savol) va javob qsimiga ajratish mumkin. Topishmoq javobi bilan yaxlit butunlikni tashkil qiladi.

O'zbek xalq topishmoqlari va turk xalq topishmoqlari shakl va mazmun jihatidan bir-biriga juda yaqin bo'lsa ham, bir-birini aynan takrorlab keladigan topishmoqlar ozchilikni tashkil etadi:

1. Elsiz ayaksız kapı açar – Qo'lsiz, oyoqsiz eshik ochar. (Shamol)
2. Attan yüksek, itten alçak – Otdan baland, itdan past. (Egar)
3. Yedi delikli tokmak, Bunu bilmeyen ahmak. – Yetti tuynukli to'qmoq,
Buni bilmagan ahmoq. (Bosh)
4. Zenginın elinde, fakirin dilinde – Boyning qo'lida, kambag'alning
tilida. (Pul)
5. Akşam baktım çok idi. Sabah baktım yok idi. – Tunda boqdim ko'p edi,
Tongda boqdim yo'q edi. (Yulduzlar)

6. Biz idik, biz idik,
Otuz iki kız idik,
Ezildik, büzüldük,
Bir duvara dizildik.
Biz edik, biz edik,
O'ttiz ikki qiz edik.
Ezildik, tizildik,
Bir devorga chizildik.
(Tishlar)

Yuqorida ko'rib turganimizdek, turli mavzulardagi ayni topishmoqlar har ikki xalq folklorida ham uchraydi. Bu ularning umumiy genetik ildizidan darak beradi.

Bir-biriga o'xshamagan betakror topishmoqlar ham har ikkala xalq adabiyotida mavjud bo'lib, ular mazmun jihatidan bir-birini takrorlamasa-da, shaklan yaqinlik yaqqol ko'zga tashlanib turadi.

Masalan, harflar bilan bog'liq topishmoqlar ham o'zbek xalq og'zaki ijodida, ham turk xalq og'zaki ijodida uchraydi.

O'zbek folklorida:

Menda bor, senda yo'q

Osmonda bor, yerda yo'q. (M harfi)

Turk folklorida:

Bende var, sende var, âlemde yok

Cihanda var, Mısır'da yok, Şam'da yok.

(Menda bor, senda yo'q, olamda yo'q

Jahonda bor, Misrda yo'q, shomda yo'q). (N harfi)

Artikulyatsiya bilan bog'liq topishmoqlarda ham o'xshashliklar kuzatiladi.

O'zbek folklorida:

"Teg" desam, tegmaydi,

"Tegma" desam tegadi. (Lablar)

Turk folklorida:

Anaya değmez, babaya deđer,

Halaya değmez, amcaya deđer,

Vallahi değmez, billahi deđer.

yoki

Sana değmez, bana deđer, dayıya da değmez. (Lablar)

Ayrim topishmoqlarning har bir qatori alohida javobga ega bo'ladi. Bunday topishmoqlar har ikkala xalq ijodida ham uchraydi.

O'zbek folklorida:

Suvda Sulaymonni ko'rdim, (Baliq)

Tog'da talaymonni ko'rdim, (Bo'ri)

Tuzsiz pishgan oshni ko'rdim, (Sumalak)

Dumalab yotgan toshni ko'rdim. (Toshbaqa)

Turk folklorida:

Suya düşer islanmaz, (Güneş)

At üstünde seslenmez, (Cenaze)
Minareden düşer kırılmaz. (Kâğıt)
Yere düşer paslanmaz. (Altın)

(Suvga tushsa ho'l bo'lmaydi,
Ot ustida ovozi chiqmaydi,
Minoradan tushsa sinmaydi,
Yerga tushsa zanglamaydi. (Quyosh nuri, janoza, qog'oz, oltin)

Ba'zi topishmoqlarda maqol yoki iboralardan unumli foydalanilganiga ham guvoh bo'lish mumkin. Yuqoridagi topishmoq fikrimizga dalil bo'ladi oladi. Oltin zanglamasligi haqida ham o'zbek tilida, ham turk tilida turli variantdagi maqollarni uchratish mumkin (Altin pas tutmaz, Altin yere dushmekle pul olmaz - Oltin zanglamas, Oltin yerga tushgani bilan chaqa bo'lib qolmaydi).

Har ikkala xalq adabiyotida qiziqarli, biroz mutoyibaga, biroz kinoyaga moyil savol-topishmoqlar ham uchraydi. Turk folklorida shaxirtmaca (ya'ni chalg'ituvchi savollar) deb yuritiladi. Shaxirtmacalar ba'zan mantiqqa asoslansa, ba'zan kutilmagan kulgili topilmalar bilan aqlni shoshirib qo'yadi. Ba'zan so'z o'yini qilib tinglovchining zehni sinaydi:

- Fil kadar büyük olup hiçbir ağırlığı olmayan şey nedir?
- Filin gölgesi.

Tarjimasi:

- Filday katta bo'lsa ham, ammo og'irligi yo'q, nima?
- Filning soyasi.
- Kırıldıği zaman kullanılan şey nedir?
- Yumurta.

Tarjimasi:

- Nima singanidan so'ng ishlatiladi?
- Tuxum.
- Nerede Cuma, Salıdan önce gelir?
- Sözlükte.

Tarjimasi:

- Qayerda juma seshanbadan oldin keladi?
- Lug'atda.

O'zbek xalqida ham bunday savol-topishmoqning turfa xili uchraydi:

Nima hamma tilda gapiradi? (Aks-sado)

Yumuq ko'z bilan nimani ko'rish mumkin? (Tushni)

Kecha “ertaga”, ertaga “kecha” bo’ladigan kun qaysi? (Bugun)

Yana shunday turkcha topishmoqlar borki, ularni alohida ta’kidlamay o’tolmaymiz. So’roq shaklidagi bunday topishmoqlarda o’lkaning joy nomlari, katta shaharlari, mahalla nomlari, qisqasi, jo’g’rofiyasi haqida ham ma’lumot olish mumkin :

– Istanbul’un en yirtıcı semti hangisi?

– Kartal.

Tarjimasi:

– Istanbulning eng yirtqich dahdasi qaysi?

– Kartal (Burgut).

– Turkiye’nin bir numaralı şehri hangisidir?

– Van.

Tarjimasi:

– Turkiyaning birinchi nomerli shahri qaysi?

– Van.

Bu topishmoqda Turkiyadagi toponimlar inglizcha so’zlarga omonimligidan foydalanib, chiroyli so’z o’yini qilingan (ingliz tilidagi one, ya’ni bir so’zi “van” deb talaffuz qilinadi; ayni vaqtda Van – Turkiyadagi shaharlardan birining nomi).

Yuqoridagi misollardan ko’rinib turibdiki, o’zbek va turk xalq topishmoqlari ham har jihatdan bir-biriga o’xshaydi, bir-birini to’ldiradi. Umuman, turkiy xalqlarning topishmoqlari orasiga “Buyuk Xitoy devorini o’rnatish” to’g’ri emas. Ularni mushtarak xususiyatlarini inobatga olgan holda tadqiq va tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Bunday tadqiqotlar natijasida o’zimiz uchun muhim bo’lgan quyidagi xulosalarni bilib olamiz:

1. O’zbek xalqining topishmoqlari turk qardoshlarimizga, ularning topishmoqlari esa bizning donishmand elimizga begona emas. Har ikkala xalq topishmoqlarini u yoki bu tilga tarjima qilib, adabiyotlar, darsliklarda bemaol foydalanish mumkin. Bu – har ikkala xalq adabiy boyligini boyitishga xizmat qiladi.

2. Topishmoqlarni tushunish, hazm qilish va javobini topish ikkala xalq vakillari uchun ham qiyinchilik tug’dirmaydi. Aksincha, bir ikkinchisini to’ldirib, boyitib beradi.

3. Ayrim topishmoqlardagi toponimlar qardosh turk xalqi madaniyati, tarixi va geografiyasi haqidagi tasavvurimizni boyitadi va Turkiya hududini chuqurroq o’rganishga yordam beradi.

4. Xalq og'zaki ijodining bu qiziqarli jajji janri qardosh xalqlarni yanada yaqinlashtirishga yordam beradi. Ularni asrlar davomida bog'lab turgan umumiy adabiy merosi, mushtarak madaniyatini tamsil etib, umumturkiy qadriyatlarining unutilmasligiga sabab bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Соколов Ю. М. Русский фольклор. М., 1938. С.217.
2. Бакиров М. Х. Татарский фольклор. Казань, 2018. С.111.
3. Пыпин А. Н. Очерки литературной истории старинных повестей и сказок русских. СПб., 1857, С. 137.
4. Elçin Şükrü. Türk bilmeceleri. Kültür bakanlığı yayınları. Ankara, 1989. S. 1.
5. Хусаинова З. Топишмоқ терминлари. Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. 1960. 3-сон. С. 28 – 33.
6. Тилавов А. Bilmeceler Топишмоқлар Topishmoqlar Загадки. «Sano-standart». Тошкент, 2019. С. 7.
7. Абдурахимов М. Ўзбек топишмоқлари. Узбекские загадки. Тошкент. Ўқитувчи, 1991.
8. İlhan Başgöz. Türk bilmeceleri. Kültür Bakanlığı, Ankara, 1993.
9. Karademir Fevzi. Türk halk bilmeceleri. Yapı – Dil – Üslup özellikleri. Gaziantep, 2010.
10. <https://acikerisim.dicle.edu.tr/xmlui/bitstream/handle/11468/5628/206049.pdf?sequence=1&isAllowed=y>
11. <https://turkcenindirilisi.com/edebiyat/turk-halk-edebiyatinda-bilmeceler-h97806.html>